

TURKIY TILLARDA AYRIM DIALEKTAL FONETIK O'ZGARISHLAR

*Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti
normuminovsh088@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy tillarning qipchoq lahjasida uchraydigan fonetik o'zgarishlar tahlil qilinadi. Dialektal tafovutlar turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti, geografik joylashuvi va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Maqolada tovush almashinuvi, jumladan, g' tovushining v tovushiga almashishiga doir bir qancha misollar keltiriladi va fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar. Turkiy tillar, dialekt, fonetika, tovush o'zgarishi, fonetik tafovutlar, qipchoq lahjası, tarixiy tilshunoslik.

TÜRK DİLLERİNDE BAZI DİALEKTALE FONETİK DEĞİŞİMLER

*Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü doçenti*

Özet. Bu makalede Türk dillerinin Kıpçak lehçesinde görülen fonetik değişiklikler incelenmektedir. Dialektal farklılıklar, Türk dillerinin tarihsel gelişimi, coğrafi konumu ve sosyal faktörler çerçevesinde analiz edilmektedir. Makalede ses değişimleri, özellikle "ğ" sesinin "v" sesiyle yer değiştirmesine dair çeşitli örnekler verilmiş ve bu konuda görüşler bildirilmiştir.

Anahtar kelimeler. Türk dilleri, dialekt, fonetik, ses değişimi, fonetik farklılıklar, Kıpçak lehçesi, tarihî dilbilim

НЕСКОЛЬКО ДИАЛЕКТНЫХ ФОНЕТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ

*Нормуминов Шерзод Тўйчиевич,
доцент Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. В данной статье рассматриваются фонетические изменения, наблюдаемые в кипчакском диалекте тюркских языков. Диалектные различия анализируются в контексте исторического развития тюркских языков, их географического расположения и социальных факторов. В статье приводятся примеры чередования звуков, в частности замены звука "г" на звук "в", и высказываются соответствующие мнения и наблюдения.

Ключевые слова. Тюркские языки, диалект, фонетика, звуковые изменения, фонетические различия, кипчакский диалект, историческая лингвистика.

SOME DIALECTAL PHONETIC CHANGES IN TURKIC LANGUAGES

*Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,
associate professor at the Uzbekistan-Finland pedagogical institute*

Annotation. This article analyzes phonetic changes found in the Kipchak dialect of the Turkic languages. Dialectal differences are examined in the context of the historical development, geographical distribution, and social factors influencing Turkic languages. The article presents several examples of sound alternations, particularly the substitution of the sound "gh" with "v", and provides related discussions and observations.

Keywords. Turkic languages, dialect, phonetics, sound change, phonetic variation, kipchak dialect, historical linguistics

Turkiy tillar tadqiqida eng izlanishlar olib borilgan sohalardan biri bu dialektikologiya yo‘nalishidir. Dialektologik tadqiqotlarda dialektlarni turli jihatlarini o‘rganish hozirda ham davom etib kelmoqda. So‘nggi yillarda dialektologik va dialektografik tadqiqotlar qamrovi yangicha yondoshuvlar asosida boyib bormoqda. Ma’lumki qipchoq shevalari o‘zbek milliy tilining tarkibida eng katta va eng muhim o‘rinlardan birini egallaydi. Bu lajhada so‘zlashuvchilar Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo va Shimoliy Xorazm kabi joylarda yashaydilar. O‘zbek-qipchoq lajhasingning asosiy xususiyatlari professor Y.D.Polivanov va professor G‘ozi Olim Yunusov tasnifida atroflicha berilgan. Ushbu lajhaga xos xususiyatlar: sY:bet (suhbt); yol>жол (yo‘l); yaman>жаман (yomon); tag>tav (tog‘); ag‘iz>avuz (og‘iz); qap>qabы(qopi); ayvan>hayvan (hayvon); sarыq>sarı (sariq); kichik>kichi (kichi).[1.52]

O‘zbek tilining qipchoq shevalarini o‘rganish bo‘yicha tilshunos olimlarimiz tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, prof V.V.Reshetov o‘zining doktorlik dessertatsiyasida Ohangaron vodiysidagi qurama shevalarini, shu jumladan, u yerdagi ko‘pchilikni tashkil qiluvchi qipchoq shevalarini chuqur o‘rgangan va ularning xususiyatlarini o‘zbek dialektologiyasida birinchi bo‘lib batafsil yoritib bergen. Filologiya fanlari doktori Fattoh Abdullayev ham o‘zining “Xorazm shevalari” [3] nomli monografik asarida Xorazmdagi qipchoq shevalarining xususiyatlarini atroflicha yoritib bergen. Shuningdek, taniqli tilshunos olimlar T.Mirsoatov, V.Egamov, F.Abdullayev, A.Mamatqulov, A.Ahmedov, M.Valiyev va boshqalar o‘zbek tilining qipchoq shevalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu ishlar ayrim qipchoq shevalarining ko‘pincha fonetik, morfologik, ayrim hollarda leksik xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan.

Biz ushbu maqolamizda o‘zbek tilining qipchoq lajhasiда “g” tovushining “v” lashuvi haqida ayrim mulohazalarni yuritamiz. “g” tovushi chuqur til orqa undosh, sirg‘aluvchi tovush. Barcha j-lovchi shevalarda [g‘-v] hodisasi uchraydi:

Ag‘anamoq//ovnamoq, belbog//belbov, ishtonbog//ishtonbov, og‘iz//oviz, og‘moq//ovmoq, qo‘g‘irmoch//quvirmoch, soppa-sog//soppa-sov, sog‘in//sovun, tog//tov, tug‘moq//tuvmoq, to‘g‘ri//tuvri, chug‘irchiq//chuvirchiq, chug‘ur-chug‘ur//chuvur-chuvur va shu kabi holatlarda uchratishimiz mumkin.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, ko‘pincha [g‘] tovushi so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida kelganda [v] tovushiga [g‘>v] o‘tadi. Bu xususiyat, ya’ni [g‘] tovushining lablanishi j-lovchi shevalar uchun xos xususiyatdir. Turkiy tillar, ayniqsa o‘zbek tili lajja va shevalari turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida shakllanib, murakkab ichki tuzilishga ega bo‘lgan. Qipchoq lajhasi esa o‘zbek tilining dialektal tarkibida eng qadimiy qatlamlardan biri sifatida ajralib turadi. Bu lahjaning ayrim fonetik xususiyatlari qadimgi turkiy yodgorliklarda uchraydigan shakllar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Masalan, “g‘ > v” o‘zgarishi qadimgi turkiy tillarda ham kuzatilgan bo‘lib, bu holat tilning evolyutsion rivojida muhim fonetik hodisalardan biri hisoblanadi. Shunga o‘xhash o‘zgarishlar boshqa turkiy tillar – masalan, qozoq, qoraqalpoq, boshqird, tatar tillarida ham uchraydi. Bu esa interdialektal izoh berishda mukammal qiyosiy metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Fonetik jihatdan olib qaralganda, g‘ tovushi orqa til sirg‘aluvchi undosh bo‘lib, u lablangan undosh - v tovushiga aylanishi artikulyatsion jarayonning soddalashuvi (assimilyatsiyaga moyillik) natijasida yuzaga keladi. Bu hodisa so‘z og‘zaki talaffuzda tezlik va soddalik tamoyili asosida yuzaga keladi. Ayrim tadqiqotchilar bunday o‘zgarishlarni regressiv assimilyatsiya yoki lablashish jarayonining natijasi sifatida talqin qiladilar. Tilshunos olimlar tomonidan bu hodisa ba’zan talaffuzdagi ijtimoiy tabaqlanish yoki lingvistik moslashuv tamoyiliga asoslanib ham izohlanadi. Bundan tashqari, qipchoq lajhasinga xos bo‘lgan turli atamalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollari va joy nomlarida ham fonetik jihatdan o‘ziga xos shakllar uchraydi.

Bu turdagи fonetik tafovutlarni o‘rganish nafaqat adabiy til meyorlarini shakllantirish, balki lingvistik madaniy merosni saqlash va hujjalashtirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga,

hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida – masalan, dialektal nutqni raqamlashtirish, audio-arxivlar yaratish, va lingvistik atlaslar tuzish – orqali bu lahjalarning ilmiy tahlilini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati mavjud.

“O’zbek tilining imlo lug‘ati”dagi [g‘] tovushi bor so‘zlarning 75 tasida [g‘<v] hodisasini uchratdik. O’zbek adabiy tilini rivojlantiruvchi va uning asosida yotgan shevalar qatoriga qipchoq shevasi ham kiradi. Buni to‘lig‘icha aniqlash va shu bilan bog‘liq holda orfografiya normalariga tegishli o‘zgartishlar kiritish dialektolog-tilshunoslarimizning galidagi muhim vazifalaridan biri bo‘lib sanalmog‘i lozim. O’zbek shevalari (qarluq, qipchoq, o‘g‘uz)ni o‘rganish tilshunoslarimiz oldidagi eng katta vazifalardan biri hisoblanadi. Adabiy tilimizdagi har bitta so‘zda sheva elementini uchratishimiz mumkin. O’zbek sheva va dialektlarining tarqalish xududlarini aniqlash, o‘zbek tilining lingvistik atlasini tuzish uchun o‘zbek tili dialektal lug‘ati vujudga kelishi kerak. Bunday lug‘atning tuzilishi tilshunosligimizdagi bir qator muammolarni hal qiladi: o‘zbek tilining to‘liq izohli lug‘atini tuzish ishini osonlashtiradi; orfografiya va orfoeziya qonun-qoidalarini belgilashdagi asosiy qiyinchilik va chalkashliklarni bartaraf qilish uchun imkoniyat yaratadi. Milliy til korpusini yaratishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining qipchoq lajhasi fonetik xususiyatlari jihatidan alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, bu borada olib borilgan dialektologik tadqiqotlar tilshunoslik fanining muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada “g” tovushining “v” tovushiga aylanishi – ya’ni [g‘>v] fonetik hodisasi misollar orqali yoritildi va bu holat qipchoq shevalarining muhim belgililaridan biri ekani ta’kidlandi. Kuzatishlarga ko‘ra, bu fonetik o‘zgarish, ayniqsa so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida faol tarzda yuz beradi. Ushbu jarayonlar o‘zbek adabiy tilining shakllanishida qatnashgan lajhalaridan biri bo‘lgan qipchoq shevasining orfografik va fonetik me’yoriga ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu hodisani umumlashtirish va ilmiy asoslash til atlaslari, dialektal lug‘atlar va milliy til korpusi tuzish ishlarida asosiy tayanch bo‘la oladi. Kelajakda o‘zbek tilining dialektal xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish, ular asosida orfografik me’yorlarni takomillashtirish va umumtil taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. В.В.Решетов, Ш.Шоабдураҳмонов. Ўзбек диалектологияси. Тош.1978.
2. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. — Тошкент: Фан, 1976.
3. X.Doniyorov.O‘zbek adabiy tilining rivojlanishida qipchoq shevalarining roli. О‘ТА, 1964
4. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание. — М.: Учпедгиз, 1928.
5. Юнусов F.O. Ўзбек тили диалектологияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 1960.
6. Решетов В.В. Говоры Охангаронской долины. — Ташкент: Фан, 1966.
7. Мирсаатов Т. Ўзбек тилида лаҳжа ва шевалар. — Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
8. Эгамов В. Ўзбек тилида диалектлар ва уларнинг ўрганилиши. — Тошкент: Фан, 1992.
9. Юнусов F.O., Мирсаатов Т. Ўзбек тилининг диалектологик атласини яратиш масалалари. // Филологик тадқиқотлар, 1985. №3. — Б. 45–52.
10. Аҳмедов А., Мамадкулов А. Ўзбек шевалари ва уларнинг лингвистик хусусиятлари. - Самарқанд, 2001.
11. Valiyev M. Qipchoq shevalarining fonetik xususiyatlari. // Til va adabiyot, 2005. №2. - B. 30-35.
12. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022.